



## **PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA UNING METODLARI**

**Xolmatova Ziroatxon Anvarovna**

*Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta’limda pedagogik diagnostikaning qo’llanilishi, uning turlari va ularni qay holatda, qachon qo’llash mumkinligini yoritib beradi. Bundan tashqari bir necha mashxur pedagog olimlarning o’z ish faoliyatlarida pedagogik diagnostikadan foydalanganliklari va unga bergen ta’riflarini o’z ichiga oladi. Shuningdek maqolada pedagogik diagnostikaning metodlari hamda tavsiflari hususida ham fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik diagnostika, so’roqlash metodi, kuzatish metodi, test metodi, faoliyat, natijalarini baholash, samaradorlik, fikrlash qobiliyati.

### **ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА И ЕЕ МЕТОДЫ**

**Абстрактный.** В данной статье будет рассмотрено применение педагогической диагностики в образовании, ее виды, а также когда и в каких ситуациях она может применяться. Кроме того, в книгу включено использование педагогической диагностики в своей работе и определения, которые ей дали несколько известных ученых-педагогов. В статье также излагаются представления о методах и особенностях педагогической диагностики.

**Ключевые слова:** педагогическая диагностика, метод анкетирования, метод наблюдения, тестовый метод, активность, оценка результатов, эффективность, мыслительная способность.

### **PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS AND ITS METHODS**

**Annotation.** This article discusses the use of pedagogical diagnostics in education, its types, and when and in what cases they can be used. In addition, it includes the use of pedagogical diagnostics in their work by several famous pedagogical scientists and their definitions. The article also presents ideas about the methods and characteristics of pedagogical diagnostics.

**Keywords:** pedagogical diagnostics, questioning method, observation method, test method, activity, evaluation of results, efficiency, thinking ability.

**Kirish.** Har bir insonning bajarayotgan ish faoliyatining zamirida amalga oshirmoqchi bo’lgan yoki bo’lmasa amalga oshirilgan masalaning aniq bir maqsadi, vazifalari va

kutilgan natijalari bo’ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash, bo’sh yoki muvaffaqiyatli o’rirlarni belgilab olish –faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish pedagogik diagnostika deyiladi.

Pedagogik diagnostika ta’lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo’lib, ko’plab ta’lim muassasalarida bu metod muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilib yo’l qo’ylgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida yosh strategik yo’nalishlar belgilab olinmoqda va ta’lim sohasida o’quvchilar bilimini yanada rivojlantirish va mustahkamlashda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

“Bola qobiliyati, imkoniyat, bilimi, egallangan ko’nikmalarining o’lchovi bormi? Bolaning bilish va ko’nikmalarini belgilashga o’qituvchi aralashgani ma’qulmi, yoki o’ziga-o’zi baho bergani afzalroqmi?” kabi savollarga eng maqbul asoslarda javob berish, pedagogik diagnostikaning predmetidir. Mana shu maqsadni ro’yobga chiqarish yo’l-yo’riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Biz bilamizki pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyat tarixi bilan deyarli tengdosh, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bo’lsa bu faoliyatning me’yorlari va natijalarini belgilash ham shunchalik qadimiydir. Demoqchimizki, o’quvchi o’zlashtirgan bilimiga baho qo’yish, uni sinov va imtixon qilish pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan yerda pedagogik diagnostika ham mavjud. Qadimda ham bu ish uslubidan pedagoglar foydalanishgan. Faqat farq shundaki, ibridoiy va o’rta asr pedagogikasida bola bilimi va iqtidorini diagnostik tahlil qilishning ilmiy asosi yo’q edi. Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda tahlil etish va yo’lga qo’yish XX asr boshlarida amalgam oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogik jarayonning nomlanishi ham turlicha bo’lgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Pedagogik diagnostika o’zi nima ekanligiga turlicha qarashlar mavjud. Mashhur pedagog Matserman diagnostikani “O’quvchi o’zlashtirishi bilan o’quv materialini to’g’ri tanlash maqsadni to’g’ri yo’naltirish mezonidir” degan bo’lsa, ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilgan bilimlarni o’zlashtirish asosi deyishadi. Boshqalar diagnostika o’qitishni jadallashtiruvchi axborotdir deb hisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostika egallagan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikri ilgari suradilar.

Ta’limda pedagogik diagnostika juda katta ahamiyatga egadir. Bu ish uslubi dars materiallarini bilish jarayonining asosini tashkil etib, aniq bir pedagogic xulosaga kelishga yordam beradi. Bu orqali pedagogik diagnostika o’quvchiga individual ta’lim berishni jadallashtiriladi, davlat va jamiyatning ta’limga qo’ygan talablaridan kelib chiqib, oquvchi bilimin to’g’ri, adolatli baholashni ta’minlaydi, ishlab chiqilgan ta’limiy mezon, kriteriyalar orqali o’quvchining sinfdan sinfga o’tishida, mutaxassislikka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi. O’tgan asrlarda pedagogik diagnostika orqali faqatgina o’quvchi bilimi baholangan. Bu diagnostikaga 1864-yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Reslar asos solganlar. Hozirda keng qo’llanilib kelinayotgan test orqali o’quvchi bilimini sinash tizimi 1908-yilda olim T.Stoun tomonidan fanga kiritilgan.

**Muhokama va natijalar.** Pedagogik diagnostikaning asosiy jihatlari mavjud va ular quyidagilar:

- taqqoshlash;
- pedagogik tahlil;
- avvaldan ayta bilish (prognоз);
- interpretatsiya;
- pedagogik diagnostika natijalarini o‘quvchilarga yetkazish;
- amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o‘quvchilarga yetkazish;
- pedagogik diagnostika metodlarini to‘g’ri belgilash.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriyalari esa:

- haqqoniylilik;
- ishonchlilik;
- puxtalik.

Pedagogik diagnostikaning asosiy jihatlari va eng muhim kriteriyalariga asoslangan holda yuqori ko‘rsatgichlarga erishish mumkin. Bu uslubning o‘ziga xos metodlari ham mavjud. Ular:

- kuzatish metodi;
- so‘roqlash metodi;
- test metodi.

Pedagogik diagnostikada kuzatish metodi. Uni qo’llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagifarq to‘g’risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlusiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Pedagogik diagnostikada so‘roqlash metodi. Ushbu metod pedagogik diagnostikada juda qadimdan buyon foydalanib kelinmoqda. So‘roqlash metodi bilim olish va berish jarayoni boshlangandan buyon mavjud. Kuzatish metodida o‘quvchining axloqiy-ma’naviy tamoyillari, qiziqishi, munosabati, fikrlash doirasi o‘rganilsa, so‘roqlash metodi esa suhbat va savol-javob orqali ko‘proq ma’lumot to’plash imkonini beradi. Bu uslubda o‘quvchi to‘g’risida subyektiv

yoki obyektiv ma’lumot olish mumkin. Axborot og’zaki, yozma, standartlashtirilgan, yakka, guruhlarga bo’lingan holda bir yoki bir necha bor so’rash asosida to’planadi.

Pedagogik diagnostikada test metodi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu metodga T.Stoun 1908-yilda asos slogan bo’lib, u ilmiy asoslarga qurilgan va ma’lum talab, qonun-qoidalar zamirida amalga oshiriladi. Odatda pedagog tomonidan o’tkazilgan barcha nazorat shakl va uslublari ham test hisoblanadi. Test asosan psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilib, amaliyotga tavsiya etilgan. U pedagogik diagnostika metodlari orasida qulayligi, sifatli va aniq ma’lumot berishi bilan ajralib turadi. Testlar yillar mobaynida yanada yaxshilanib va takomillashtirilib kelinmoqda. Bu metodga turli davrda turlicha izohlar berilgan. Nemis olimi Liner: “Test shaxsning turli holatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniyat va qobiliyatini aniqlovchi ilmiy metoddir”, -deb ta’riflagan. Test chinakamiga pedagogic diagnostika metodi bo’lib metodi bo’lib, u jarayonning pirovard natijasini aniqlab berishga qodir mezondir. U doimo tahlillarga asoslanadi. Testlarning ham bir necha turlari mavjud.

Ular:

- ta’limiy muvaffaqiyatlarni aniqlaydigan test;
- shaxs taraqqiyotni va uning imkoniyatlarini belgilaydigan test;
- intellektni aniqlaydigan test;
- umumiyligi aniqlaydigan test;
- muayyan hududda, mакtabda u yoki bu fanni o’qitish samaradaorligini ko’rsatuvchi test;
- professional kasbga moyillik layoqatini, shaxsning funksional imkoniyatlarini aniqlovchi test;
- shaxs psixologiyasini ochib beruvchi test;
- shaxsning yo’naltirilganligini belgilovchi test;
- shaxsning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordam beruvchi test;
- klinik test va h.k.

Yuqorida bayon etilganidek, test ham baholash, pedagogik diagnostika hisoblanadi. O’quvchilar bilimini bu usulda baholash 1930-yilda boshlangan. Lekin, keyingi paytlarda u keng joriy qilinmoqda. Amaliyotda o’zlashtirishga qaratilgan testlar tobora ko’proq o’rin olib bormoqda. O’zlashtirishga qaratilgan testlar:

- muyyan predmetni o’zlashtirishga qaratilgan testlar;
- o’zbek tilini o’zlashtirishga qaratilga testlar;
- chiroyli yozuvni belgilashga yo’naltirilgan testlar;
- o’qish tezligi va texnikasi baholovchi testlar;
- so’z boyligini aniqlovchi testlar;
- bolaning rivojlanishini va maktabga tayyorligini aniqlovchi testlar;
- bolaning intellektual faoliyatini aniqlashga qaratilgan testlar;
- bolaning didatik ko’nikma va malakasini belgilovchi testlar va h.k.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, pedagogik diagnostikata’lim jararayonida juda ahamiyatli faoliyat hisoblanadi. Agar sinov bir xil talab, bir xil munosabat, psixologik kayfiyatda amalga oshirilsa haqiqiy ahvolni aniqlashda ob’yektiv natijalar olinishi mumkin. Modomiki maqsad haqiqiy ta’limiy ahvolni aniqlash ekan, unga to’g’ri, halollik, haqqoniylit bilan yondashish zarur. Aks holda, diagnostikadan ko’zlangan natijaga erishish, to’g’ri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashqari, ayrim sinf ishlarni, ba’zan yozma ishlarni, ko’pincha esa og’zaki berilgan javoblarni baholashda har xil yondashuvlar qayd etilishi mumkin. Bu sinovchi ya’ni, diagnostic tahlil o’tkazuvchi qilinayotgan ishlarning tub maqsadiga tushunib yetishga, mas’ulitaiga, ishiga bo’lgan yondashuvga va nihoyat uning savoyasiga bo’g’liq. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa shuki, pedagogik diagnostikani amalga oshirishda rioya-andisha, oshna-og’aynigarchilik, tanish-bilishchilik, boshqa noxushliklar aralashsa, haqiqiy ahvol aniqlanmaydi, umumiy ishga putur yetadi, kamchilik va nuqsonlar ochilmay haspo’shlanadi, ta’limni takomillashtirishdan ko’zda tutilgan maqsadlar ochilmay qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: Знанийе 1989-80 с
2. Фарберман Б. Л. Прогрессивные педагогические технологии. Т.: ИПВССИ. 1999-84 с
3. Adash Rustamova Eshankulovna, & Qayumova Shaxnoza Anvar qizi. (2023). Theoretical Foundations of Pedagogical Diagnostic Methodology in the Training of Future English Language Teachers. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 4(9), 83-85.